

## **O'SMIRLARNING RIVOJLANISHIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI IJTIMOIY VA PSIXOLOGIK OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH**

*Azizova Dinara*

*OSIYO XALQARO UNIVERSITETI*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o'smirlik davrining mohiyati, uning asosiy bosqichlari va o'smirlar rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar haqida batafsil ma'lumot beradi. O'smirlikning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilinib, salbiy omillar va ularning oqibatlari yoritilgan. Xusan, oilaviy muhit, ijtimoiy bosim, noto'g'ri ovqatlanish, texnologiyadan ortiqcha foydalanish va ta'lim tizimining o'ziga xos muammolari o'smirlearning rivojlanishiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishi misollar bilan olib berilgan.

Shuningdek, maqolada salbiy omillarning oldini olish va o'smirlarni to'g'ri yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Milliy qadriyatlar va urf-odatlarni inobatga olgan holda, o'smirlarni mas'uliyatli, mustaqil va jamiyatda faol shaxs sifatida tarbiyalash muhim ekani ta'kidlanadi. Oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning uzviy hamkorligi orqali o'smirlearning ijobiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu maqola ota-onalar, pedagoglar va psixologlar uchun o'smirlarni tarbiyalashda amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

### **СОЦИАЛЬНЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ПОДРОСТКОВ, И СПОСОБЫ ИХ УСТРАНЕНИЯ.**

**Аннотация:** Данная статья предоставляет подробную информацию о сущности подросткового возраста, его основных этапах и факторах, влияющих на развитие подростков. Проанализированы физические, психологические и социальные особенности подростков, а также освещены негативные факторы и их последствия. В частности, рассмотрены такие факторы, как семейная среда, социальное давление, неправильное питание, чрезмерное использование технологий и специфические проблемы образовательной системы, оказывающие негативное влияние на развитие подростков, с примерами.

Также в статье даны рекомендации по предотвращению негативных факторов и правильному направлению подростков. Подчеркивается важность воспитания подростков как ответственных, независимых и активных личностей в обществе с учетом национальных ценностей и традиций. Показаны пути обеспечения положительного развития подростков через взаимодействие семьи, образовательных учреждений и общества.

Эта статья служит практическим руководством для родителей, педагогов и психологов в вопросах воспитания подростков.

### **SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS THAT NEGATIVELY IMPACT ADOLESCENT DEVELOPMENT AND WAYS TO OVERCOME THEM.**

**Annotation:** This article provides detailed information about the essence of adolescence, its main stages, and the factors influencing the development of adolescents. It analyzes the

physical, psychological, and social characteristics of adolescents, as well as highlights negative factors and their consequences. In particular, factors such as family environment, social pressure, improper nutrition, excessive use of technology, and specific problems in the education system are discussed in terms of their negative impact on adolescent development, with examples.

The article also offers recommendations for preventing negative factors and guiding adolescents in the right direction. It emphasizes the importance of raising adolescents as responsible, independent, and active individuals in society, taking into account national values and traditions. The ways to ensure positive development of adolescents through the collaboration of family, educational institutions, and society are also presented.

This article serves as a practical guide for parents, educators, and psychologists in the upbringing of adolescents.

**Kirish.** O'smirlik – inson hayotidagi muhim bosqichlardan biri bo'lib, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy o'sish va rivojlanish jarayoni bilan bog'liq. Bu davr bolalikdan kattalikka o'tish bosqichi hisoblanadi va unda o'smirlarning dunyoqarashi, shaxsiyati va mas'uliyat hissi shakllana boshlaydi.

O'smirlik yoshi odatda 10-19 yosh oralig'ini qamrab oladi, ammo bu chegaralar har bir jamiyatda biroz farq qilishi mumkin. Juhon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan belgilangan tasnifga ko'ra:

- 10-13 yosh – ilk o'smirlik yoshi,
- 14-16 yosh – o'rta o'smirlik yoshi,
- 17-19 yosh – kech o'smirlik yoshi.

O'smirlikning asosiy xususiyatlari

- 1. Jismoniy rivojlanish:

Gormonal o'zgarishlar tufayli qomat va tashqi ko'rinishda o'zgarishlar yuz beradi. Balog'atga yetish jarayoni boshlanadi.

- 2. Ruhiy rivojlanish:

O'zlikni anglash va o'zini jamiyatda topishga intilish.

Mustaqillikka bo'lgan ehtiyoj oshadi.

- 3. Ijtimoiy rivojlanish:

Do'stlar va jamoa bilan munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy munosabatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishga urinishlar kuchayadi.

**Asosiy qism.** O'smirlar rivojlanishiga turli omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu ta'sirlar ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qilishi yoki zarar yetkazishi mumkin. Quyida bunday salbiy ta'sirlarning asosiy turlari va ularning oqibatlari keltirilgan:

- 1. Oilaviy muhitning salbiy ta'siri:

Ota-onalar bilan mojarolar: O'smirlar va ota-onalar o'rtasidagi tushunmovchiliklar (masalan, haddan tashqari qattiqqa'l yoki beparvo tarbiya) o'smirlarning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Zo'ravonlik yoki qattiqqa'l munosabat: Oilaviy zo'ravonlik yoki so'z bilan tahqirlash o'z-o'zini qadrlashni kamaytiradi.

Moddiy qiyinchiliklar: Oiladagi iqtisodiy muammolar o'smirni o'qish va rivojlanishga e'tibor qaratishdan chalg'itishi mumkin.

Natijada o'smirlarda stress, depressiya, o'ziga ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish holatlari kuzatiladi

- 2. Ijtimoiy bosim va tengdoshlarning ta'siri:

Tengdoshlar tomonidan masxara qilish: Bu ularning (qizg'in masxara yoki kamsitish) o'z-o'zini qadrlashning pasayishiga olib keladi.

Noqonuniy faoliyat yoki zararli odatlar: Yomon do'stlar ta'sirida chekish, ichish yoki giyohvandlik kabi zararli odatlar o'rganilishi mumkin.

Moslashuv bosimi: Tengdoshlarga moslashish istagi o'z prinsiplarini yo'qotishga olib kelishi mumkin.

Natijada bolada ruhiy buzilishlar, noto'g'ri xatti-harakatlar va salbiy hayotiy qarorlar qabul qilish holatlari kuzatiladi.

3. Jismoniy salomatlikka zarar yetkazuvchi omillar:

Noto'g'ri ovqatlanish: Nosog'lom oziq-ovqat iste'moli semizlik yoki ovqat hazm qilish muammolariga olib keladi.

Harakatsizlik: Faoliyatning kamligi o'smirning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Giyohvand moddalar yoki tamaki iste'moli: Bu nafaqat jismoniy, balki ruhiy rivojlanishga ham zarar keltiradi.

Natijada o'smirda salomatlikning yomonlashuvi, rivojlanishning sustlashishi.

4. Texnologianing haddan tashqari ishlatalishi:

Uzoq vaqt ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazish o'zini past baholash, kiberbullying va ruhiy bosimga olib kelishi mumkin. Haddan tashqari o'yinlar o'ynash yoki zararli kontent ko'rish vaqtini behuda sarflashga va qiziqishlarni yo'qotishga olib keladi.

Natijada o'smirda uyqu buzilishi, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi, ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanmasligi holatlari kuzatiladi.

5. Ta'lif tizimining salbiy ta'siri:

Maktabdag'i yuqori talablar yoki haddan tashqari ko'p vazifalar stress va tashvish keltirib chiqarayotgan bo'lishi mumkin. O'qituvchilar yoki tengdoshlardan keladigan kamsitishlar o'smirlarning o'qishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Doimiy raqobat hissi o'z-o'ziga nisbatan ishonchhsizlikni oshiradi. Natijada o'smirda motivatsiyaning yo'qolishi, akademik muvaffaqiyatsizlik va ishonchhsizlik holatlari kuzatiladi.

6. Ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir qiluvchi omillar:

Depressiya va tashvish stress yoki oilaviy mojarolar tufayli kelib chiqadi. Tengdoshlar bilan muloqotda qiyinchiliklar hissiy izolyatsiyani kuchaytiradi.

O'zini qabul qila olmaslik ya'ni o'z qiyofasidan yoki imkoniyatlaridan norozi bo'lish o'ziga nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi.

Natijada o'smirda o'ziga zarar yetkazish, hayotdan norozilik yoki hissiy beqarorlik.

7. O'smirlar orasida ijtimoiy tengsizlik:

Moliyaviy farqlar ya'ni boshqalar bilan solishtirish natijasida komplekslar paydo bo'lishi mumkin. Rivojlanish imkoniyatlaridagi farqlar o'zini chetda his qilishga olib keladi. Natijada o'smirda ijtimoiy diskriminatsiya, stress va o'z qobiliyatlariga ishonchhsizlik.

Salbiy ta'sirlarning oldini olish uchun tavsiyalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Oilaviy muhitni yaxshilash: Farzandlar bilan ochiq va ishonchli muloqotni rivojlantirish.
2. Tengdoshlar ta'sirini nazorat qilish: Do'stlarni tanlashda ehtiyyotkor bo'lish va o'smirlarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish.
3. Ta'lif va qo'llab-quvvatlash: Maktabda o'qituvchilar va psixologlarning yordami o'smirlarning muvaffaqiyatli rivojlanishiga yordam beradi.
4. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: To'g'ri ovqatlanish va jismoniy faollikka e'tibor qaratish.
5. Ruhiy yordam: Zarur bo'lganda psixolog yoki maslahatchiga murojaat qilish.

O'smirlarni tushunish, ularga mehr ko'rsatish va to'g'ri yo'naltirish orqali bu salbiy ta'sirlarni kamaytirish mumkin. O'smirlarni to'g'ri yo'naltirishda sabr-toqat va uzlusiz e'tibor talab qilinadi. Ularni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonch bildirish va o'z yo'llarini topishlariga

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

imkon yaratish orqali sog‘lom va muvaffaqiyatli hayot kechirishlariga yordam berish mumkin. Oila o‘smirlar rivojlanishida birinchi va eng muhim omil hisoblanadi. Sog‘lom oilaviy muhit ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ota-onalar o‘smirlar bilan ochiq va samimiy suhbatlarni yo‘lga qo‘yishi kerak. Ularning fikrlari va his-tuyg‘ularini tinglash muhim. Farzandlaringizga mehr ko‘rsatib, ularga qiyinchiliklarni yengishda yordam bering. Shuningdek, O‘smirlarga kichik vazifalar va javobgarliklarni berib, ularni mustaqillikka o‘rgatish ham lozimdir.

O‘zbekistonda o‘smirlarga munosabat bildirishda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni inobatga olish muhimdir. Bu qadriyatlar oila, mehr-oqibat, hurmat, axloqiy poklik va jamiyatda bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanadi. O‘smirlar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatib, o‘zlariga o‘rnak olishadi. Shu sababli ota-onalar va kattalar axloqiy poklikni namoyish etishlari lozim. O‘smirlarga Navro‘z, Amazon va Qurbon hayitlari kabi milliy va diniy bayramlar, an‘analar haqida ma’lumot berish va ularda faol ishtirok etishlariga imkon yaratish. Milliy raqlar, kuy-qo‘sishlar, hunarmandchilik va adabiyotni o‘rgatish orqali ular qalbida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish. Ularga o‘zbek tili va adabiy merosining boyligini tushuntirish va Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon kabi buyuk adiblarning asarlarini o‘qitish. O‘zbekistonda Islom dini tarbiyaning muhim bir qismi hisoblanadi. O‘smirlarga halollik, odob-axloq va sabr-toqat kabi sifatlarni o‘rgatish lozim. Ularga har qanday e’tiqod va madaniyatga hurmat bilan qarashni tushuntirish. Bag‘rikenglik qadriyatlarini tarbiyaga singdirish muhimdir. Har bir o‘smirning qiziqishlari va iste’dodlarini hurmat qilish va rivojlantirishga yordam berish. Qattiq nazorat qilishdan ko‘ra, tushunish va hissiy qo‘llab-quvvatlash muhim. O‘smirlarga ularning fikrlarini qadrlayotganiningizni his qildiring. Ularning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini erkin ifoda qilishlariga imkon bering. Bu, ayniqsa, qaror qabul qilish jarayonida muhimdir. O‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini tushunish, mas’uliyatni his qilish muhim fazilat sifatida singdirilishi lozim.

O‘smirlar bilan turli xatti-harakatlarning oqibatlari haqida ochiq gaplashish, misollar keltirish. Masalan, mas’uliyatli bo‘lishning ijobjiy tomoni yoki beparvolikning salbiy oqibatlarini tushuntirish. Muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilishni o‘rgatish va ular bilan birqalikda mumkin bo‘lgan natijalarni tahlil qilish. Noto‘g‘ri qarorlar qabul qilganda o‘smirlarni jazolashdan ko‘ra, ularning xatolaridan saboq olishlariga imkon berish.

Mas’uliyatni his qilishni rag‘batlantirish uchun nimalar qilish mumkin? O‘smirlarga kichik vazifalar berish, masalan, uy ishlarida yordam berish yoki yoshroq aka-uka va opalariga g‘amxo‘rlik qilish. Ularga shaxsiy maqsadlar qo‘yishni va ushbu maqsadlarga erishish uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishni o‘rgatish. Oilaviy yoki guruhiy qarorlar qabul qilishda o‘smirlarning fikrini inobatga olish va ularga mas’uliyat yuklash. O‘smirlarni o‘z harakatlarining oqibatlarini tushunadigan va mas’uliyatni his qiladigan shaxs sifatida tarbiyalash nafaqat ularning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki jamiyatda ahil va mas’uliyatli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

### Xulosa

O‘smirlilik davri inson hayotining murakkab, ammo muhim bosqichidir. Bu davrda shaxsiy rivojlanish jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq. O‘smirlar rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish uchun oila, jamiyat va ta’lim tizimi o‘zaro hamkorlikda ishlashi lozim.

Salbiy ta’sirlarning oldini olish uchun o‘smirlarga mehr ko‘rsatish, ularni tinglash va ularga mas’uliyatni his qilishni o‘rgatish zarur. Oilaviy muhitni yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, shaxsiy qiziqish va iste’dodlarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularni muvaffaqiyatli kelajak sari yo‘naltirish mumkin.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni tarbiyaga singdirish orqali o'smirlar qalbida vatanparvarlik va bag'rikenglik tuyg'ularini rivojlantirish kerak. Ularga mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berish, lekin bu jarayonda mas'uliyatni anglashga ko'maklashish muhimdir.

To'g'ri tarbiya va yo'naltirish orqali o'smirlar nafaqat o'z kelajagini, balki jamiyatning kelajagini ham yuksaltiradigan yetuk shaxs bo'lib shakllanadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Рахимова, М. (2023). Градостроительство в контексте трансформации. *Gospodarka i Innowacje*, 36, 131-137.
2. Рахимова, М. Х. ЁШЛАРНИ ДЕСТРУКТИВ ГУРУХЛАР ТАЪСИРИДАН ҲИМОЯЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ. *ТОШКЕНТ-2021*, 52.
3. Chullieva, G. T. Intonema and its Types. *Middle European Scientific Bulletin*. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95.
4. Nigmatovna, Y. D., & qizi Chullieva, G. T. (1956). THE ROLE OF NOVERBAL MEANS IN SPEECH MEANING. *International Engineering Journal For Research & Development*, Vol. 6, Issue 2 published May 16, 2021.–Pag. 1956-1961.
5. Chullieva, G. T. (2023). Intonema and its Types.
6. Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna, & Farmonova Nazirabegim Sadreddinovna. (2024). "ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA MAQOLLARNING KONSEPTUAL TAHLIL MUAMMOLARI" . Uz Conferences, 2(4), 41–44. Retrieved from <https://www.uzresearch.uz/index.php/UC/article/view/608>
7. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
8. Rustamovna, N. S. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 378-382.
9. Rustamovna, N. S. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 127-131.
10. Akbarovna, I. S. (2024). MASTERING THE BASICS OF PEDAGOGICAL SKILLS. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 882-887.
11. Akbarovna, I. S. (2024). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ ЧЕРЕЗ ПЛАН СПОРТИВНЫХ ИГР. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 521-528.
12. Akbarovna, I. S. (2024). SPORTCHILAR FAOLIYATINI O'RGANISHNING UMUMIY PSIXOLOGIK USULLARI. *WORLD OF SCIENCE*, 7(5), 536-543.
13. Akbarovna, I. S. (2024). PROCEDURE FOR CREATING PSYCHOLOGICAL TEST PROGRAMS. *PEDAGOG*, 7(6), 153-159.
14. Икромова, С. (2024). ФОРМЫ И СОДЕРЖАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 925-932.
15. Икромова, С. А. (2024). ОСВОЕНИЕ ОСНОВ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 894-899.
16. Икромова, С. А. (2024). ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 906-911.
17. Икромова, С. А. (2023). O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN MAFKURAVIY IMMUNITET HOSIL BO'LISHINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Ikromova Sitora Akbarovna Osiyo xalqaro universiteti

- assistenti. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (10), 333-336.
18. Ikromova, S., & Ziyodullayeva, M. (2024). DEVIANT XULQ-ATVOR. Modern Science and Research, 3(11), 576-579.
19. Икромова, С., & Джумаева, Ф. (2024). ОРИЕНТИРЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И В ДРУГИХ СТРАНАХ. Modern Science and Research, 3(11), 540-546.
20. Икромова, С. А. (2024). ОСНОВЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ. PSIXOLOGIYA VA SOTSILOGIYA ILMIY JURNALI, 2(4), 47-53.